

## LISONIY PARADIGMALARDA OPPAZITSION HOLATLAR

Sharipova E'zoza Fazliddin qizi  
Guliston davlat pedagogika instituti,  
Xorijiy til va adabiyoti  
ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada har bir so'z turkumining o'z grammatik kategoriyalari: otlarda - son kategoriyasi, kelishik kategoriyasi; fe'llarda - zamon kategoriyasi, shaxs-son kategoriyasi, daraja kategoriyasi morfologik sathlari hamda oppazitsion holatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ot, sifat, fe'l, leksik-grammatik kategoriyalari, formal ko'rsatkichlar.

Tildagi so'zlarning ot, sifat, fe'l kabi to'dalarga bo'linishi ularning ham so'zlik holati (tovush va ma'noning ajralmas birligidan iborat bo'lishi), ham grammatik xususiyatlari (morfologik xususiyatlari va sintantik funksiyasi) asosida maydonga keladi, har bir so'zda leksik-grammatik tomonlarning birligi bor. Shuning uchun bunday to'dalar leksik-grammatik kategoriyalar deyiladi.

So'zlarning leksik-grammatik kategoriyalari (so'z turkumlari) klassifikatsiyasi shunday prinsiplarga tayanadi: morfologik prinsip, leksik-semantik prinsip va sintaktik prinsip.

Morfologik tomonga tayaning so'zlarni formal-grammatik belgilariga, morfologik xususiyatlariga qarab to'dalarga ajratishdir. Bu morfologik belgilar:so'z o'zgartiruvchi affikslar olish yoki olmaslik, o'zgarishg' o'zgarmasligi (son, egalik, kelishik, shaxs-son affikslarini olib o'zgarish yoki o'zgarmaslik). turlanish va tuslanishi va b. Masalan, ot to'dasiga kiradigan so'zlar, son, egalik affikslari bilan o'zgarish, kelishik affikslarini olib o'zgarish - turlanish xususiyatlariga zga. Fe'llar shaxs-son affikslarini olib o'zgarish-tuslanish xususiyatiga ega (sof fe'l tuslovchilarning (qisqa formalarinigina oladi: bordim. Chog'ishtiring borganman, studentman). Yuklamalar formal-grammatik jihatdan o'zgarmaydi.<sup>1</sup>

So'zlar formal ko'rsatkichlarga ega bo'lish yo bo'lmaslik jixatidan ikki gruppaga bo'linadi; 1. O'zgartuvchi so'zlar - so'z o'zgartish formasiga ega bo'lgan so'zlar (turlanuvchi so'zlar: masalan. otlar, olmoshlar; tuslanuvchi so'zlar:

<sup>1</sup> Шахобитдинова Ш.Х. Грамматик маъно талкини хусусида: Фил. фан. ном. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – 24 б.; Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. – Б. 298.; Раҳматуллаев Ш. Семема – мустақил тил бирлиги. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1984. №5. – Б. 17–20.; Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: ЎРОЎМТВ, 2010. – 591 б.; Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Курбонова М, Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – 404 б.

fe'llar). 2. O'zgarmovchi so'zlar - so'z o'zgartirish formasiga ega bo'lmagan so'zlar (masalan, bog'lovchilar, ko'makchilar).

Bu klassifikatsiya so'z o'zgartiruvchi affikslarni olish-olmaslikni - sof grammatik (morfologik) holatni ko'zda tutadi. Lekin affikslarning boshqa turlari ham so'zlarning turkumlarga ko'ra bo'lgan differentsiatsiyasini ko'rsatishga xizmat qilishi - kategorial farqlovchi belgi sifatida bo'la olishi mumkin: I. Forma yasovchi affikslar (forma so'zi tor ma'noda): -cha, -loq kabi kichraytirish-erkalash affiktlari shu so'zning otligini ko'rsatadi; belgining kamligini bildiradigan -roq, -ish, -cha kabi affikslar shu so'zning sifatligini ko'rsatadi; -inchi qo'shimcha songa xos va b. 2. So'z yasovchi affikslar: ayrim so'z kategoriyalarining o'z maxsus yasovchilari bor. Bu affikslar, odatda, bir turkumdagi so'zni boshqa turkumga o'tkazirish vazifasini ham bajaradi. Masalan, fe'l yasovchi -la qo'shimcha, sifat yasovchi -li qo'shimcha va b.

So'zlarni leksik-semantik tomoniga qarab to'ralarga ajratirish ularning mundarijasini asos tutirishdir: ot predmet ma'nosini ifodalaydi, fe'l harakat va holatni bildiradi, sifat predmetning belgisini bildiradi.

So'zlarning sintaktik tomoni uning so'z qo'shilmasida, so'z birikmasida va gapda, bajaradigan vazifasidir. Har bir so'z o'z semantik va grammatik (morfologik, sintaktik) xususiyatlariga ko'ra so'z qo'shilmasiga ega, aniqlovchi, hol kabi ma'lum bir bo'lak, gap bo'laki, vazifasida kelirishga mos bo'ladi - shunga «atalgan» bo'ladi. Har bir bo'lak uchun tipik so'zlar -semantik va grammatik xususiyatlar bilan shu bo'lak funksiyasida qo'llanirishga juda mos keladigan so'zlar bor: kesim vazifasida keladigan ti-pik so'z - fe'l, aniqlovchi uchun - sifat va b. So'z nutqda o'ziga tipik bo'lmagan vazifada qo'llanirishi ,ham mumkin, Bu hodisa o'sha so'zning boshqa turkum funksiyasida ishlatirishidir. Masalan, so'z bir turkumdan boshqa turkumga affiks orqali o'tirishi - aylanirishi mumkin. Bunda so'z yasovchi affiks kategorial farqlash vazifasini ham bajaradi (bolali: otdan sifat yasash). Lekin nutqda birining o'rniga ikkinchisining qo'llanirishi tashqi ko'rinishda o'zgaririshga uchramay kontekstning, sintaktik holatning kuchi bilan bo'ladigan odatdagi normativ holatdir. Ko'chiririshning bu ko'rinishi konversiya sanaladi. Masalan, bir yaxshiga bir yomon har yerda bor, yor-yor (qo'shiq). Yaxshi va yomon so'zlari (ularning tipik sintaktik vazifasi aniqlovchi va kesim funksiyasida kelirishdir: Tiniq suv. paxtalar oppoq) ot uchun tipik bo'lgan vazifada - ega va to'ldiruvchi bo'lib kelgan (Substantivatsiya - otlashirish hodisasi). «Har bir so'z turkumining o'zi uchun tipik bo'lgan sintaktak funksiyasi bor» deganimizda, olmoshlarni istisno qilamiz, olmosh, o'z xususiyatlariga ko'ra, ot, sifat, ravirish va son kabi.

turkumlarning sintaktik belgilarini olgan: u sintaktik funktsiya jihatidan bir r xillikka ega emas.<sup>2</sup>

Soʻzlarni turkumlarga ajratishda yuqoridagi belgilarning hammasiga asoslanamiz. Demak, soʻzlar maʼlum belgilar kompleksi (kompleks belgilar) asosida leksik-grammatik gruppalariga ajratiladi. Bunday ajratishda bir tomonning oʻzigagina tayanish shu bilan chegaralanish - soʻzlarning har tomonlama tabiatiga mos kelmaydi. Masalan, faqat belgi anglatish xususiyatiga-(semantik tomonga) asoslansak, sifat bilan ravish bir xil boʻlib qoladi (sifat predmetning belgisini bildiradi, ravish belgining belgisini bildiradigan), holbuki ravishlarning qotgan formadagi soʻzlardan hosil boʻlishi (buni nutqda koʻllanishi orqali, funktsiyasiga qarab bilib olamiz), ayrim hollarda, fakultativ ravishda, qisman turlanish, paradigmadan turli darajada ajralish, ravishdoshdan hosil boʻlish, soʻz takrori orqali hosil boʻlishi kabi leksik grammatik belgilari, hol funktsiyasida kelishi, sintaktik belgisi, sifatlarnikidan boshqadir. Faqat maʼnoga tayansak, suvoq (imorat bitishga yaqin: faqat suvogʻi qoldi), oʻroq (oʻrim) kabi soʻzlarni feʼlga kiritgap boʻlar edik, chunki bular ish-harakat maʼnosi bilan bogʻliq, lekin bular feʼl emas, otdir (ish-harakat oti), chunki feʼl boʻlish uchun harakat bildirish bilan bogʻlangan formal belgilar ham shart. Formal jihatdan oʻzgarish-oʻzgarmaslik belgisigagina, morfologik tomonigagina, asoslansak, ot bilan olmosh (ot tusidagi), sifat bilaya olmosh (bu, shu kabi olmoshlar), sifat bilan koʻmakchi bir xil boʻlib qoladi (turlanish, formal koʻrsatkichlar olmaslik kabi belgilarga koʻra, holbuki ular boshqa tomonlardan oʻzaro keskin farqlanadi. Bir tomonga xos belgining oʻzi bilangina chegaralanib qolishning mumkin emasligini koʻrsatishda sintaktik holatga munosabat juda xarakterlidir. Masalan, oy soʻzi («luna» maʼnosida) - ot (oy osmon. dengizida suzib bormoqda): ega, toʻldiruvchi yoki qaratqich boʻlib kelish - uning tipik sintaktik funktsiyasi, lekin bu soʻz: 1) oy yuz (oy yuzli jonon) qoʻshilmasida aniqlovchi boʻlib kelgan, demak, sifat bajaradigan tipik sintaktik funktsiyada kelgan 2) oy borib, omon kelsin front ketgan yolgʻizim (qoʻshiq.) misolida ravishda bajaradigan vazifada kelgan. Faqat sintaktik xolatga qarasaq, bularning birinchisini - ot, ikkinchisini-ni-sifat, uchinchisini-ravish deb sanashga toʻgʻri kelar edi. Holbuki bu soʻz ot boʻlib, uning xususiyatlari sifat va ravishlarnikidan butunlay boshqachadir. Demak, sintaktik belgi soʻzlarni turkumlarga ajratishda yetakchi, hal qiluvchi belgi boʻlolmaydi.

<sup>2</sup>Семема – мустақил тил бирлиги. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1984. №5. – Б. 17–20.; Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: ЎРОЎМТВ, 2010. – 591 б.; Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Курбонова М, Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – 404 б.; Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Олий ўқув юрт. филология фак. талабалари учун дарслик. (У. Турсунов, А.Мухторов, Ш.Раҳматуллаев (Масъул муҳаррир Ш.Раҳматуллаев). Қайта ишланган ва тўлдирилган нашри. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.245.

So'zlarni turkumlarga ajratishda yuqoridagi belgilarning hammasini birgalikda olish va ularning o'zaro munosabatini ham ko'zda biror turkum doirasidagi so'zlarning leksik va grammatik ma'no, sintaktik funktsiya jihatidan bir xil bo'lishini ko'zda tutadi. So'zlarning formal jihatdan o'zgarish-o'zgarimasligiga asoslangan bo'linish sof grammatik klassifikatsiya bo'lsa, yuqoridagi belgilar kompleksi asosida turkumlanish LEKSIK-grammatik klassifikatsiyadir: bunda so'zlarning semantik tomondan ham, grammatik tomondan ham har xil bo'lishi ko'zda tutiladi.

So'zlarning turkumlanishida ko'rsatilgan belgilarga tayanishda semantik tomonning ayrim ahamiyati bor: har bir turkumdagi so'zlar, dastlab, ma'nosi bilan bir gruppaga uyushib, grammatik ma'nolari shu bilan aloqador bo'ladi (Chog'ishtiriig: og'iz so'zining otligi yakka olingan holatda ham bilinib turadi. Turkumlanishning asosiy grammatik belgisi so'zning morfologik xususiyatlaridir: turkumlarni belgilashda so'z formasining roli, affikslarning ma'lum turkumga xoslik - shu turkum uchun tipiklik va turkumni ajratib berish-hollari, so'zning formal tusi bilan sintaktik funktsiyasining bog'liqligi va b. Misollarni cho'qishtiring: beshov (son: -ov qo'shimcha songa xos: sonlikning bir belgisi; to'yda, to'ydan, to'yga (to'y-ot) -to'ydim, to'yding, to'ydi (to'y - fe'l).

So'z leksik va grammatik tomonlarning birligi bo'lib (shunga ko'ra u leksikaning ham, morfologiyaning ham obyekti), grammatik jihatdan qaraganda, so'z - turli formalariing (so'z formalariining) va ular ifodalaydigan grammatik ma'nolarniing yng'indisidir. So'zlarning turkumlarga ajralishida bu hodisalar asosiy tayanchdnr, bunda so'zlarning ma'no, formal-grammatik xususiyat va sintaktik funktsiya jihatidan bir xilligi ko'zda tutiladi.<sup>3</sup>

Tildagi so'zlarning asosiy qismi yirik to'daga bo'linadi: mustaqil so'zlar va yordamchi so'zlar. Bulardan tashqari, modal so'zlar, undovlar va taqlid so'zlar ham ayrim-ayrim gruppalarni tashkil qiladi

Ziddiyat (ar.qarama-qarshilik: var. oppozitsiya. lat.oppositio-qarama-qarshi qo'yish) – lisoniy birliklarning ifodalanishidagi farqlarga muvofiq ifodalovchilarining va, aksincha, ifodalovchilardagi farqlarga muvofiq ifodalanishlarining muhim lisoniy farqlanishi. Masalan, [b] va [t] fonemalari orasida ziddiyat mavjud bo'lib, shunga muvofiq, (bosh) va (tosh) birliklari orasida shakliy-mazmuniy qarama-qarshilik munosabati amal qiladi. Yoki «birlik son», «ko'plik son» orasidagi semantik ziddiyat (kitob) va (kitoblar)

<sup>3</sup> Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. – Б. 298.; Раҳматуллаев Ш. Семема – муस्ताқил тил бирлиги. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1984. №5. – Б. 17–20.; Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: ЎРОЎМТВ, 2010. – 591 б.; Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Курбонова М, Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – 404 б.

birliklarida ham shakliy (formal), ham mazmuniy (semantik) farqni keltirib echiqaradi.

Tabiat, jamlovchiiyat va tafakkurdagi mavjudlik va taraqqiyotning asosiy omili qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni bo'lganligi kabi lisoniy paradigmadagi birliklarni bir-biriga bog'lab turuvchi, paradigmaning yashovchanligini ta'minlovchi omil lisoniy ziddiyatdir. Demak, lisoniy ziddiyat falsafiy qarama-qarshilik birligi va kurashi qonunning tildagi xususiylashmasi, voqelanishi.

Lisoniy ziddiyatni aniqlash yoki lisoniy ziddiyatga bunday yondashish ziddiyatli va ziddiyatsiz munosabatni farqlashni taqozo qiladi. Chunki turli lisoniy birlik va bir birlikning turli varianti orasidagi munosabat har xil tabiatli unsurlar, a'zolar orasidagi munosabatlar sifatida muayyanlashtirilmog'i lozim. Masalan, shaxs son shakli bo'lgan [-miz] va [-siz] (o'qiymiz-o'qiysiz) har xil lisoniy morfologik birlik bo'lib, bir paradigmaning turli a'zolari sifatida ziddiyatli munosabatda bo'ladi. Biroq turli farqli xossaga ega bo'lgan til oldi va til orqa (o') unlilari bitta (o') fonemasining variantlari sifatida fonetik jihatdan farqlansa-da, funksional jihatdan tafovutga ega emas. Chunki o'zbek tilida bitta (o') fonemasi mavjud bo'lib, uning variantlari ma'no farqlash tabiatiga ega emas. Ba'zilar [o'y] so'zini aytganda, (o') ni til oldi, boshqalar esa til orqa unlisi sifatida talaffuz qiladi. Baribir, bu so'z (o') tovushlari qanday bo'lishidan qat'i nazar, «fikir», «xayol» ma'nolarini beradi. Lisoniy birlikning varianti orasidagi bunday munosabat ziddiyatsiz munosabat deyiladi.

Ziddiyat paradigmatic munosabatning xos ko'rinishi va xossasi sifatida sintagmatic munosabatga qarama-qarshi qo'yiladi.

Ma'lum bir lisoniy birlik mansub ziddiyatlar majmui bu birlikning paradigmatic sifatini aniqlashda, paradigmatic muayyanlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Paradigmatic muayyanlashtirish birlikning boshqa birlikdan farqlanuvchi substansial tabiatini oydinlashtirish demakdir.

Tilshunoslar lisoniy ziddiyatni bir necha tomondan tasniflaydilar:<sup>4</sup>

1. Ziddiyat tizimida tutgan o'rniga ko'ra.
2. Ziddiyat a'zolarining o'zaro munosabatiga ko'ra.
3. Turli vaziyatda ziddiyatning amal qilishiga ko'ra.

O'zbek tilshunosligida lisoniy paradigma, lisoniy ziddiyat va lisoniy tasnif hamda uning turlari haqida haqidagi olimlarning ilmiy qarashlari keltirilib,

<sup>4</sup> Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. – Б. 298.; Раҳматуллаев Ш. Семема – мустақил тил бирлиги. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1984. №5. – Б. 17–20.; Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: ЎРОЎМТВ, 2010. – 591 б.; Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Курбонова М, Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – 404 б.

ularni davrlar ketma-ketligida asoslab berishga va izchil bayon etishga harakat qilingan.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. – Б. 298.
2. Раҳматуллаев Ш. Семема – мустақил тил бирлиги. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1984. №5. – Б. 17–20.
3. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: ЎРОЎМТВ, 2010. – 591 б.
4. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М, Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – 404 б.
5. Семема – мустақил тил бирлиги. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1984. №5. – Б. 17–20.
6. Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Олий ўқув юрт. филология фак. талабалари учун дарслик. (У. Турсунов, А.Мухторов, Ш.Раҳматуллаев (Масъул муҳаррир Ш.Раҳматуллаев). Қайта ишланган ва тўлдирилган наشري. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.245.
7. Шаҳобитдинова Ш.Х. Грамматик маъно талқини хусусида: Фил. фан. ном. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – 24 б.